НОВАЯ ЭРА НАУКИ И ЗНАНИЙ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ
global-science-review.com
editor@global-science-review.com

NUTQIDA KAMCHILIGI BO‘LGAN BOLALAR OILASINI KORREKSION PEDAGOGIK YORDAM JARAYONIGA JALB ETISH TEXNOLOGIYALARI

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Maxsus pedagogika yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
To‘xtaboyeva Inobat Norsoat qizi

Nutqida nuqsoni mavjud bolani oilada tarbiyalash va rivojlantirishda ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning shakli va mazmuni ularni logoped (defektolog) lar bilan hamkorlik darajasi bilan aniqlanadi. Ota-onalar bilan ishlashni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga tayanamiz:

-Ota-onalarning defektologik yordam olishga tayyorlik darajasini hisobga oluvchi differensiallashgan yordam;

-Ota-onalar tomonidan qayta aloqaning mavjudligi;

-Korreksion o‘qishning turli xil davrida olib boriladigan ishning u yoki bu shakli (ko‘rinishi)ning ustuvorligi. [3]

Logopedning ota-onalar bilan birgalikdagi ishi butun pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi va maxsus bolalar bog‘chasi sharoitida qo‘yidagi shakllarda amalga oshiriladi.

Ota-onalar majlisi (konferensiyalar, seminarlar,). Birinchi ota-onalar majlisi avgust oyining ohiri yoki sentabrning boshida o‘tkaziladi. Unda ota-onalar ushbu muassasaning tuzilishi, butun o‘quv yili davomidagi ish mazmuni va vazifalari, bolalar bog‘chasining kun tartibi va qoidalari bilan tanishadilar. Qoida bo‘yicha bu majlis maxsus guruhlarning ota-onalari bilan bolalar bog‘chasining mudirasi tomonidan olib boriladi;

Ikkinchi majlis oktabr oyi davomida har bir logoped tomonidan o‘z guruhida o‘tkaziladi. Bu vaqtga kelib, logoped bolalarni tekshirishni tugatadi. Bu majlisning maqsadi ota-onalarni, tekshiruv natijalari bilan tanishtirishdan iborat. Bunda

logoped faqatgina guruhning emas, balki har bir bolaning alohida va umumiy rivojlanish xarakteristikasini beradi. Ota-onalarga bolalarning nutq rivojlanishidagi asosiy kamchiliklarni sodda va tushunarli qilib ochib berish, ularning meyordan orqada qolishi darajasini hamda bu nuqsonni bartaraf etishda logoped va tarbiyachi bilan birgalikdagi xatti-harakatlarini ko‘rsatib o‘tadi. Shu majlisda logoped ta’limning birinchi davri ish rejasi, uning vazifa va mazmuni haqida gapirib beradi;

Uchinchi ota-onalar majlisi yanvarda o‘tkaziladi. Bunda 1-yarim yillikka yakun yasaladi, keyingi tuzatuvchi ta’limning asosiy yo‘nalishlari ochib beriladi. Har bir bolaning umumiy va nutkiy rivojlanish xarakteristikasi beriladi, bolalarda qanday o‘zgarishlar borligi, shu bilan birga uyda alohida e’tibor berish zarur bo‘lgan muammolar va mashg‘ulotlar ko‘rsatiladi;

Oxirgi, yakunlovchi ota-onalar majlisi may oyida o‘tkaziladi. Unda butun o‘quv yiliga yakun yasaladi. O‘tilgan materialni mustahkamlashni davom ettirish uchun (alohida bolalarga) zarur maslahatlar beriladi. Shu yerda logoped ota-onalarni ularning bolalari ommaviy bog‘chaga o‘tishi mumkinligi yoki maktabgacha maxsus muassasada takroran qolishi zarur ekani to‘g‘risidagi komissiyaning qarori bilan tanishtiradi.

Ota-onalar bilan qisqa suhbatlar. Har haftaning shanba yoki chorshanba kunlari (kunning 2-yarmida) o‘tkaziladi. Bu yerga ishlash jarayonida ko‘proq qiyinchiliklar kelib chiqqan bolalarning ota-onalari taklif qilinadi.

Ota-onalar butun o‘quv yili davomida ochiq logopedik mashg‘ulotlarga qatnashib turadilar. Mashg‘ulotlar 3 oyda kamida bir marta o‘tkaziladi.

Bundan tashqari, butun o‘quv yili davomida logoped va tarbiyachilar birgalikda ota-onalar burchagini tashkil qiladilar. Bu yerda bola nutqining meyorda shakllanishi, nutq anomaliyasining turli ko‘rinishlariga taalluqli alohida savollar yoritiladi, shu muammolar yoritilgan adabiyotlar ruyhati taklif qilinadi.

Oilalar bilan shug‘ullanganda eng samarali ish shakli ta’sir etishning individual ko‘rinishi bo‘lib xisoblanadi, jumladan individual tarzda maslaxat

(konsultatsiya) berishdir. Individual maslaxat berish bir necha bosqichda olib borildi. Har bir bosqichda o‘ziga xos va mos masalalar amalga oshirilib, o‘ziga xos usullardan foydalanildi.

Birinchi bosqich vazifasi-xamkorlikni rad etgan va unga salbiy qarashda bo‘lgan ota-onalar bilan ochiq va ishonchli munosabat o‘rnatish. Shu maqsadda individual maslaxatning maqbul shakllaridan biri bo‘lgan suxbatdan foydalanildi. Suxbat mazmuni shu bosqich vazifasi asosida olib borildi. Boshlang‘ich qisqa suxbatda ota-onalarning pedagogik qobiliyati pastligi va ularni noto‘g‘ri xatta-xarakatlarini tanqid qilmasdan,yaxshi tomanlarini kursatish lozim.. Birinchi uchrashuvda ota-onalar xatoliklarini sezmaganday bo‘lishga va ular ishonchini oqlashga xarakat qildik.

Ota-onalar bilan olib boriladigan individual ishning ikkinchi bosqichi maslaxat-tavsiyanoma ko‘rinishida olib borilib nutq kamchiligini turiga va bola rivojlanish darajasiga qarab mo‘ljal qilindi.

Ota-onalarga mavjud qiyinchiliklarni oldini olish va uni yo‘qotish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bola extiyojiga, uning yoshi va maxsus qiziqishlari xisobiga olish kerakligini o‘z vaqtida yaxshilab tushuntirish juda foydalidir. Aks xolda qabul etilgan pedagogik usullarni joriy etishda o‘ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin. Bizning ota-onalar bilan olib borgan ishimizda eng muximi ularda nutq kamchiligi bor bola umumiy xolati va mavjud qiyinchiliklar xarakteri, darajasi va sabablari xaqida xaqiqiy yorqin tasavvur xosil etish va logopedik ishi davomida birgalikda hamkorlik qilish. [2]

Oilada nutq nuqsoniga ega farzandi bor ota-onalar uchun quyidagi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1.Ota-onaning erta yoki qarindoshlik nikoxlarini, alkogolizm, giyoxvandlik oqibatida bolalarida nutq nuksonlarini erta aniqlash va logopedik ishga jalb etish.

2.Tibbiyet va maxsus muassasalari, oila, maxalla xamkorligini kuchaytirish va ta’lim tarbiya samaradorligini oshirish.

3.Oilada nutq nuqsoniga ega farzandi bor ota-onalar bilan ishlash shakllarni, mazmunini va metodlarini takomillashtirish va xayotga joriy etish.

4.Nutq kamchiklarni oldini olish maqsadida axoli o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib borish.

5.Oiladan nutq nuqsoniga ega bolani ota-onalariga ta’lim tarbiya berishda «Sog‘lomlashtirish», , «Oilalarda sog‘lom muxitni saqlash»ga tayerlash, «Sog‘lom turmish tarzi» shunchasini sindirish, «Nutq nuqsoniga ega farzandni xayetga tayerlash, moslashtirish», «nutq nuqsoniga ega farzandi tarbiyalashda ota-onalarning mas’uliyati»ni kuchaytirish kabi masalarining xal etilishiga pedagogik nutqtai nazardan yondashish.

6.Sharq mutaffakirlarining oila qo‘rish va oilada bola tarbiyasi yuzasidagi qarashlari bilar ekanmiz, ularning ko‘pgina asrlari yoshlarni komil insonlar qilib tarbiyalash usllaridan foydalanish.

7. Ota-onalar uchun nutq nuqsoniga ega farzandi tarbiyalash bo‘yicha metodik ishlarini yaratish va chop ettirish;

8. Oilada nutq nuqsoniga ega farzandi rivojlantiruvchi ta’lim berish, tarbiyalash, davolash va korreksion reabilitatsiya qilish masalalari bo‘yicha maslaxatlar, metodik yordam ko‘rsatish va ular uchun o‘quv-metodik adabiyotlar tayyorlash;

9.Nutq nuqsoniga ega farzandi bor bolani tarbiyalash, kamol toptirish, murakkab muammolardan biri bo‘lib, ota-onalardan, oila a’zolaridan yuksak diqqat e’tiborni, g‘amxo‘rlikni ishonchli bilim va xushmuomalalikni talab etadi. Bundan tashqari bolaning xar xil yoshdagi jismoniy va ruxiy rivojlanishini normada va noanomal rivojlanishi to‘g‘risida fiziologik qonuniyatlar xaqida mukammal bilimga ega bo‘lishlari lozim.

10. Ota-onalarga tibbiy-psixologik-pedagogik jamoalar genetik kabinetlari, axborot vositalari, ota-ona universitetlari doimiy yordam ko‘rsatib turishlari maqsadga muvofiqdir.

Kompleks yondoshish - bolaga har tomonlama ta’sir kocrsatishini ko'zlab ta’lim-tarbiya jarayonida ham pedagogik, ham psixologik, ham meditsina metodlarini ishlatishdir. Rivojlanish prinsipi nutq kamchiligining kelib chiqish yoMini, uning rivojlanishini tahlil qilishni ko'zda tutadi. Bunda kamchilikning kelib chiqish sababalarini rivojlanish jarayonida qanday o ‘zgarishlar natijasi ekanligini ko‘rsatish asosiy vazifadir. Nutqdagi asosiy funksiyalarning buzilishi kishi faoliyatiga albatta salbiy ta’sir ko'rsatadi, uning faolligini pasaytiradi, o g ‘ir ruhiy kechinmalar kelib chiqishiga sabab boladi.[1]

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. Mo‘minova L.R., Ayupova M.Y. LogopediY. T., 1993 y.

2. Nurmuxamedova L.SH. Nogiron bolalarni oilada tarbiyalash T., 2005

3.Shomaxmudova R., L.Mo‘minova. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. T., O‘qituvchi. 1995 y.